# Informatika va axborot texnologiyalari

1




novda
edutainment

Education Alliance Finland
TIER 1
CERTIFIED
PEDAGOGICAL QUALITY

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

F.M. Zakirova

# Informatika va axborot texnologiyalari

# 1-sinf

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

Ta’limni rivojlantirish Markazi huzuridagi Aniq fanlar bo‘yicha ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan.

TASDIQLANGAN PLAGIATGA QARSHI TASDIQLANGAN

novda
edutainment
Toshkent – 2023

**UO'K** 004 (075.3)
**KBK** 32.81ya72
I-61

**Zakirova F.M.**
**Informatika va axborot texnologiyalari.** Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik / F.M. Zakirova, M.R. Zakirova, M.R. Fayziyeva, N.S. Xaytullayeva – Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023 – 80 b.

## Taqrizchilar:

**G. A. Amrulloyeva** – Toshkent shahri 205-umumiy o'rta ta'lim maktabi oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

**N. M. Usmanova** – MMTV tasarrufidagi PMTIDUM oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

**O. Sh. Yevstafyeva** – MMTV tasarrufidagi PMTIDUM 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

**ISBN** 978-9943-7209-1-6

© F. Zakirova
© "Novda Edutainment", 2023

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

# Shartli belgilar:



Qalam bilan ishlang



Savollarga javob bering



Bo‘yang



Mantiqiy topshiriq



Uy vazifasi



Bu qiziq!



Og‘zaki bajaring



O‘ylab ko‘ring

O'ZBEKISTON RESPUB
FARG'ONA VILOYA
RISHTON TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI BO'LIMI
O'RTA TA'LIM
MAKTABI
№ 19
29 - 08 2023 y.

# Aziz bolajonlar!

Sizni ushbu ajoyib va qiziqarli darslikni o‘rganishga taklif etamiz! Darslik yosh, biroq juda zarur fan – Informatika va axborot texnologiyalari deb nomlanadi. Darslikdagi bir mavzudan boshqasiga o‘tish orqali axborot olish, undan to‘g‘ri foydalanish haqida ko‘plab yangi va qiziqarli bilimlarga ega bo‘lasiz. Shuningdek, o‘qishda va hayotda sizga yordam beruvchi foydali amaliy usullarni bilib olasiz.

Qiziquvchan, ziyrak va ijodkor bo‘ling!

Sizga omad tilaymiz!




Biz olamni qanday
qabul qilamiz?

# Bizning sezgi a’zolarimiz



- Bola nima qilyapti?
- U qanday tovush chiqaryapti?
- Nima uchun otasi norozi qarab o‘tiribdi?
- Nima uchun qizcha boshini burib, dasturxon tomon qaradi?
- U nimaning hidini sezdi?



**1.** Siz nimani ko‘rishingiz, hidlashingiz, mazasini bilishingiz, ushlab ko‘rishingiz va his qilishingiz mumkin?





**2.** Qaysi sezgi a’zolari orqali televizor va telefonning ishlayotganini bilishingiz mumkin?





**3.** Maqolning ma’nosini tushuntirib bering.

**Eshitganingga emas, ko‘rganingga ishon.**

# Biz nimalarni ko‘ramiz?







- Qaysi rasmda bola ma’lumotlarni ko‘zi orqali qabul qilmoqda?
- Qaysi rasmda bola ma’lumotlarni faqat ko‘zi orqali qabul qilmoqda?




**1.** Rasmdagi bolalar ma'lumotlarni qaysi sezgi a'zosi orqali qabul qilmoqda?



**2.** Qizaloqlar qanday kayfiyatda?



**3.** Topishmoqning javobini toping.

**Ikki og'a-ini bir-birini ko'rmaydi.**

# Rang va shakl














- Har bir buyum qanday shaklga ega?
- Har bir buyumning rangi qanday?
- Buyumlarning o‘lchamini solishtiring.

**1.** Rangi bir xil narsalarni toping.








**2.** Har bir qatorda nima ortiqcha?










**3.** Topishmoqning javobini toping.

**Qishin-yozin bir xil libosda.**

# Biz nimalarni eshitamiz?







- Rasmdagi jonzotlar qanday tovush chiqaradi?
- Qaysi birining tovushi eng past?
- Qaysi birining tovushi eng baland?





**1.** Rasmdagi qaysi bola ma'lumotlarni faqat quloqlari orqali qabul qilmoqda?





**2.** Qaysi buyum ortiqcha?







**3.** Maqolning ma'nosini tushuntiring.

**Yuz marta eshitgandan,**
**bir marta ko'rgan yaxshi.**

# Bular qanday hid taratadi?







- Qaysi hidlar yoqimli?
- Qaysi hidlar yoqimsiz?
- Burun orqali qanday ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin?





**1.** Qizaloq qanday hidni sezmoqda?



**2.** Qaysi rasm ortiqcha?







**3.** Iborani sharhlab bering.

**Burnidan narini ko‘ra olmas.**

# Turli xil ta'mlar



- Qaysi mevalar shirin?
- Qaysi sabzavotlar achchiq?
- Qaysilari sho'r?
- Qaysilari nordon?



**1.** Rasmdagi sabzavotlar orasida eng achchig‘i qaysi?



**2.** Qaysi rasm ortiqcha?



**3.** Maqolning ma’nosini tushuntiring.

**Tilingda bo‘lsa boling,**
**Kulib turar iqboling.**

O‘ZBEKISTON RESPUB...
FARG‘ONA VILOYATI
BISHKENT TUMANI
...MAKTAB
...
...
MAKTABI
№ 14
«29» 08 2025 y.

# Bizning his-tuyg‘ularimiz



- Bolalar nima uchun qorbo‘ronni qo‘lqop kiyib o‘ynashadi?
- Nima uchun bolalarning yuzlari qizargan?



**1.** Ushbu narsalarga qo‘lingiz tekkanda, nimani his qilasiz?





**2.** Qaysi rasm ortiqcha?





**3.** Topishmoqning javobini toping.

**Yalt-yalt etadi,**
**Yamlab ketadi.**

# Buyumlarga ta’rif beramiz



- Siz har kuni foydalanadigan biror buyumni tanlang.
- Ushbu buyumni barcha sezgi a’zolaringiz yordamida o‘rganing.
- Beshta sezgi a’zosi orqali nimalarni his qilganingizni gapirib bering.

**1.** Sariq, yumaloq va nordon. Bu nima?





**2.** Narsalarning umumiy jihatlari va farqlarini ayting.





**3.** Maqolning ma'nosini tushuntiring.

**Olmaning tagiga olma tushadi.**

# Bizning dunyoqarashimiz





- Ikki bola o‘zlari yashayotgan dunyoni qanday tasvirlashdi?
- Birinchi rasmni chizgan bolani o‘rab turgan olam qanday?
- Ikkinchi bola olamni qanday ko‘radi?
- Sizning atrofingizdagi olam qanday?
- Siz yashayotgan dunyoning rasmini chizing.

**1.** Biror uyda ushbu narsalarni ko‘rsangiz, unda yashovchilar haqida nima deya olasiz?





**3.** Maqolning ma’nosini tushuntiring.


**Odobli bola elga manzur.**

## Biz bilib oldik:

- insonda beshta: ko‘rish, eshitish, ta’m bilish, hid bilish va his qilish kabi sezgi a’zolari bor;
- ko‘zimiz bilan buyumlarning rangi, shakli, hajmini ko‘rishimiz va farqlashimiz mumkin;



- tilimiz orqali nordon, sho‘r, shirin va achchiq ta’mlarni ajratamiz;
- quloqlarimiz orqali atrofimizdagi tabiatning, jonzotlarning va turli qurilmalarning tovushlarini eshita olamiz.





# Ketma-ketlik



# Ketma-ketlik







- Qani, ayting-chi, rasmdagi qaysi hodisa oldinroq bo‘lgan edi?
- Keyin nima bo‘ldi?
- Hodisalar qanday ketma-ketlikda bo‘lishini aytib bering.

**1.** Daraxtning oldingi va keyingi holatini tasvirlab bering.





**2.** Rasmlardagi jarayonlarni diqqat bilan kuzating. Endi rasmlarni tartib bilan raqamlang.







**3.** Harflarning o‘rnini almashtirib, rasmda ko‘rsatilgan buyum nomini toping.

| P | O | K | T | O | K |
|---|---|---|---|---|---|

Birinchi qaysi hisob bo‘lgan?

1:1 1:0

# Oldin – keyin

1 2 3 **4** 5 6 7

Oldin Keyin



- Yil fasllarining nomlarini aytib bering.
- Bahordan keyin qaysi fasl keladi?
- Kuzdan oldingi fasllarni sanab bering.

**1.** “G” harfidan oldingi harfni ayting. “D” harfidan keyingi harfni va uning rangini ayting.

A B D E F G H


**2.** “F” harfidan oldingi va keyingi barcha harflarni ayting. “A” harfidan keyingi va “G” harfidan oldingi harflarni ayting.

A B D E F G H


**3.** Harflarning o‘rnini almashtirib, rasmdagi buyum nomini toping.

| T | I | B | K | O |
|---|---|---|---|---|

Hosil bo‘lgan so‘zning “O” harfidan oldingi va keyingi harflarini ayting.



# Edi – bo‘ldi




- Dalada bug‘doy unib chiqdi. Undan qanday qilib non tayyorlanadi?
- Daraxtda olma pishdi. Olmadan nimalar tayyorlash mumkin?
- Sigir sut berdi. Sutdan nimalar tayyorlash mumkin?

**1.** Avval bu nima edi va keyin nima tayyorlandi?






**2.** Buterbrod tayyorlash uchun nimalar qilish kerakligini ayting.






**3.** Harflarning o‘rnini almashtirib rasmdagi narsaning nomini toping.

| R | D | A | F | A | T |
|---|---|---|---|---|---|

Avval u nima edi?

# O‘sish va kamayish tartibi



- Sizning oilangizda eng katta yoshli kim?
- Sizning oilangizda eng kichik yoshli kim?
- Oilangiz a’zolarini eng kichigidan boshlab tanishtiring.
- Oilangiz a’zolarini katta yoshli a’zodan boshlab sanab bering.



**1.** Har bir rasmdagi buyumlar sonini aniqlang. Sonlarni kamayish tartibida sanab bering.





**2.** Quyida berilgan transport vositalarini hajmining kichigidan kattasigacha ketma-ketlikda ayting.






**3.** Harflarning o‘rnini almashtirib, rasmda berilgan buyumlardan birining nomini toping.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Q | A | A | M | L |

Rasmdagi o‘quv qurollarining nomini uzunidan boshlab



# Amallarning ketma-ketligi




Samolyotcha yasash uchun qog‘ozni ko‘rsatilgan ketma-ketlikda buklang.

1. Varaqning uchlarini varaq markaziga qaratib buklang.
2. Bukilgan tomonini ichiga qayiring.
3. Yuqori burchaklarini yana ichkariga qaratib buklang.
4. Burchakni tashqariga qayirib buklang.
5. Varaqni o‘rtada ko‘rsatilgan chiziqlar bo‘ylab buklang.
6. Samolyotning har bir qanotini teng qilib buklang.

**1.** Quyidagi rasmlarga qarang. Quymoq tayyorlash uchun harakatlarni qanday ketma-ketlikda bajarish kerakligini ayting.







**2.** Choy damlash retsepti uchun harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri joylashtiring.

1. Choynakni issiq suvda chaying.
2. Chovgumda suv qaynating.
3. Choynakka 2 choy qoshiq quruq choy soling.
4. 5-7 daqiqa tindirib qo‘ying.
5. Qaynab chiqqan suvni choynakka quying.



**3.** Harflar ketma-ketligini to‘g‘ri joylashtirib, rasmdagi buyumning nomini toping.


| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| N | O | Y | C | A | H | K |

# Tabiatdagi takrorlanish hodisalari



- Har bahor, yoz, kuz va qishda qanday tabiat hodisalari takrorlanadi?

**1.** Rasmda qanday jarayon tasvirlangan? Bu jarayon qanday takrorlanadi?



**2.** Harflar o‘rnini almashtirib, rasmdagi poliz mahsuloti nomini toping.

| T | R | U | A | V | Z |
|---|---|---|---|---|---|



Bu mahsulot yilning qaysi oylarida pishadi?

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

# Bizning sog‘lom turmush tarzimiz


Sport


Toza havo


Gigiyena

Kun tartibi




To‘g‘ri ovqatlanish


Shirin uyqu



- Sog‘lom turmush tarzini olib borish uchun qanday qoidalarga amal qilish kerak?
- Ushbu qoidalarga rioya qilish uchun nimalar qilish kerak?

**1.** Kundalik hayotingizda sog‘lom turmush tarzining qaysi qoidalariga amal qilasiz?




**2.** Siz qaysi amallarni bajarmaysiz? Nima uchun? O‘rniga nimalar qilasiz?

**3.** Harflarning o‘rnini almashtirib, to‘g‘ri so‘zni toping.

| O | S | G‘ | O | L | M |
|---|---|---|---|---|---|

## Biz bilib oldik:

- tabiatda hamma narsaning o‘z tartibi va ketma-ketligi mavjud;
- ketma-ketlik kamayish yoki o‘sish tartibida bo‘ladi;
- tartib – bu biror narsaning to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashishi;
- tabiatda va hayotda hamma narsa o‘zaro bog‘liq hamda izchil ketma-ketlikda bo‘ladi;
- agar inson biror faoliyatni amalga oshirmoqchi bo‘lsa, u bir nechta kichik harakatlar ketma-ketligini bajarishi kerak.

# Tomonlar va yo‘nalishlar



## Tepa – past




- Javonning tepa tokchasida nimalar joylashgan?
- Pastki tokchasida qanday hayvonlarning rasmi bor?
- Ayiqcha javonning qaysi qatoriga qo‘yilgan?
- Quyoncha qaysi qatorning qaysi tokchasida?

**1.** O‘yinchoqlar qaysi qatorda “yashaydi”? Ikkinchi qatorda qaysi hayvonlar tasvirlangan?



**2.** Yuqoridagi rasmda ko‘p qavatli uyda yashovchilar tasvirlangan. Ularning manzilini mana bunday tartibda yoziladi: kirish yo‘lagi raqami, qavat raqami. Masalan, mushukning manzili – 5, 3. Har bir yashovchining manzilini aniqlang.

**3.** Rasmlarga qarang. So‘zlarni yozib, katakchalarni to‘ldiring.



# Oldinda – orqada



- Qizchaning ortida nima bor?
- Qizchaning old tarafida nimalar bor?
- O‘g‘il bolaning oldida nimalar joylashgan?
- Qaysi buyumlar qizchaning va o‘g‘il bolaning oldida joylashgan?


**1.** Rasmda berilgan yog‘och devor orqasida nechta tovuq bor?



**2.** Quyidagi rasmga diqqat bilan qarang. Oldindagi shakl qaysi rangda, orqadagi shakl-chi?



**3.** Rasmlarga qarang. Buyumlarning nomini yozib, katakchalarni to‘ldiring.



# Chapda – o‘ngda



- Qizchaning o‘ng tomonida kim o‘tiribdi?
- Bolaning o‘ng tomonida kim o‘tiribdi?
- Onaning o‘ng tomonida kim o‘tiribdi?
- Otaning chap tomonida kim o‘tiribdi?
- Onaning chap tomonida hamda otaning o‘ng tomonida kimlar o‘tiribdi?

**1.** Rasmda nimalar tasvirlanganini aniqlang:




- kvadratning yuqori chap burchagida;
- kvadratning yuqori o‘ng burchagida;
- kvadratning pastki chap burchagida;
- kvadratning pastki o‘ng burchagida.

**2.** Rasmdagi mashinalarning rangini ayting:

- o‘rtadagi mashina;
- jigarrang mashinaning chap tomonidagi;
- qizil va ko‘k rangli mashinalar o‘rtasidagi;
- sariq mashinaning o‘ng tomonidagi;
- eng birinchi turgan mashina;
- eng oxirgi turgan mashina.



**3.** Rasmlarga qarang. Buyumlar nomini yozib, katakchalarni to‘ldiring.










# Uzoq – yaqin




- Qaysi bola toshni hammadan uzoqqa tashladi?
- Qaysi bola toshni yaqinroqqa tashladi?
- Buni qayerdan bildingiz?

1. Qaysi shakllar sariq doiraga yaqin, qaysilari undan uzoq joylashgan? Yashil doiraga-chi? Pushti to‘rtburchakka-chi?



2. Atrofingizni kuzating. Kim sizga eng yaqin, kim eng uzoqda o‘tirganini ayting.

3. Rasmga qarang. Buyumlar nomini yozib, katakchalarni to‘ldiring.








Globus kimga yaqin turibdi?

# Yo‘l va yo‘nalish






- Mashina yoqilg‘i quyish shoxobchasidan qo‘zg‘aldi. U chapga burildi, keyin ikkita burilishni o‘tkazib, yana chapga burildi. Mashina qayerga bordi?
- Shundan so‘ng mashina avval chapga, keyin o‘ng tomonga burildi va ikkita binodan o‘tib, chap tomonga burildi. Mashina yana AYOQSHga qaytib borishi uchun qaysi tomonga yurishi kerak?

**1.** Toshbaqa chapdan pastki birinchi katakchada turibdi. U 2 katak to‘g‘riga va 3 katak yuqoriga yurdi. Toshbaqa olmaga yetishi uchun qaysi tomonga burilishi kerak?




**2.** Rasm ostida ko‘rsatilgan yo‘nalishlar bo‘yicha baliq qaysi katakchaga borib to‘xtashini aniqlang.




**3.** Rasmlarga qarang. Buyumlar nomini yozib, katakchalarni to‘ldiring.



# Uzun – qisqa




- Qaysi bolaning yo'li qisqa?
- Kimning yo'li uzun?
- Siz buni qanday aniqladingiz?
- Kim uyga tezroq yetib boradi?


**1.** Eng uzun yo'lni toping.



**2.** Poygada qizil, jigarrang va sariq rangli toshbaqalar ishtirok etdi. Qaysi toshbaqa birinchi va qaysi biri oxirida marraga yetib kelganini ayting.



**3.** Rasmlarga qarang. Kerakli harflarni qo‘yib, katakchalarni to‘ldiring.



## Xavfsiz hudud









- Birinchi rasmda qanday xavfli vaziyat ko‘rsatilgan?
- Ikkinchi rasmda qanday xavf bor?
- Uchinchi va to‘rtinchi rasmlarda xavfli vaziyatlar tasvirlanganmi? Yoki xavfsizmi?

1. Ayting-chi, rasmdagi xavfli vaziyat qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?



2. Qaysi rasmda xavfsiz vaziyat tasvirlangan?






3. Rasmlarga qarang. Kerakli harflarni qo‘yib, katakchalarni to‘ldiring.








# Labirint





**1.** Bolaga uyga borish yo‘lini ko‘rsating.



Yo‘nalishni shu ketma-ketlikda belgilang va bolaning yo‘lini chizing. Rasmdan rasmga o‘tishda yuqoriga, pastga, chapga yoki o‘ngga harakat qilishingiz mumkin.

**2.** Sichqonchani labirint bo‘ylab harakatlantiring. Alifbo tartibiga rioya qilsangiz, uni pishloqqa olib borishingiz mumkin.

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| B | A |  | | X | N | M | V |
| D | E | | | D | X | L | Z |
| H | F | G | H | B | V | X | Y |
| T | G | J | İ | T | U | O‘ | Z |
| S | L | K | R | S | T | G‘ | Sh |
| N | M | Ng | Q | Ng | Ch | Sh | Ch |
| D | N | O | P |  | | O‘ | G‘ |
| B | A | P | A | | | T | I |

**3.** Rasmlarga qarang. Buyumlar nomini yozib, katakchalarni to‘ldiring.





| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| L | A | B | I | R | I | N | T |
| A | | | | | | | |
| L | | | | | | | |
| B | | | | | | | |
| | | | | | | | |

# Maktabdan uyga qaytish yo‘li





- Bola yo‘lda qanday binolar yonidan o‘tadi?
- U necha marta o‘ngga burilishi kerak? Chapga-chi?
- Bu yo‘l xavfsizmi?
- Yana boshqa yo‘l bormi?
- Boshqa yo‘l bola yurgan yo‘lga nisbatan uzoqroqmi yoki qisqaroqmi? Taqqoslang.

**1.** Bolalar turgan uydan maktabgacha bo‘lgan xavfsiz yo‘lni toping.




**2.** Kim maktabga tezroq yetib boradi, qizchami yoki o‘g‘il bolami? Nima uchun? Kimning yo‘li qisqa, kimniki esa uzoq?

**3.** Rasmlarga qarang. Buyumlar nomini yozib, katakchalarni to‘ldiring.



## Biz bilib oldik:



- xavfsiz yo‘l yoki xavfsiz vaziyat nima ekanini;

- yo‘llarning uzoq yoki qisqaligini solishtirishni;





- tepa va past so‘zlarining ma’nosini;


- yo‘l yoki biror yo‘nalish chizmasini chizishni;

- labirintdan yo‘l topib chiqishni;



- o‘ngga, chapga, yuqoriga, pastga so‘zlaridan foydalanishni.

- o‘ngga va chapga so‘zlarining ma’nosini;




# Samaradorlik


# Narsalarni qismlarga ajratish








- Uy, daraxt va quyosh qanday qismlardan iborat?
- Uyning har bir qismi belgilari (rangi, shakli va o‘lchami)ni aytib bering.



**1.** Qayiqcha qanday qismlardan yasalgan? Qaysi qism ortiqcha?



**2.** Agar uyni qismlarga ajratsak, quyidagi to‘plamlardan qaysi biri hosil bo‘ladi?



**3.** Yoyilmalarning qaysi biri kubga mos?



# Turli qismlardan yaxlit narsani yig‘is




- Lego konstruktori qismlaridan nimalar yasash mumkin?
- Yuqoridagi rasmga qarang. Ko‘k mashinani yig‘ish uchun konstruktorning qaysi qismlaridan foydalanish mumkin?
- Bu mashinani yig‘ish uchun nechta lego bo‘lagi kerak bo‘ladi?
- Qo‘g‘irchoqni konstruktorning qaysi qismlaridan yig‘ish mumkin?
- Qo‘g‘irchoqni yig‘ish uchun nechta lego bo‘lagi kerak bo‘ladi?


**1.** Ortiqcha qismni toping.



**2.** Qaysi qism yaxlit rasmdan kesib olingan?



**3.** Tangram qismlaridan raketa, kemacha va uycha yig'ing. Samolyot va vertolyot ham yig'sa bo'ladimi?




# Taqqoslash


## Rang



## Shakl



## O‘lcham



## Boshqa belgilar



**1.** Rasmlarga diqqat bilan qarang va har bir uychaning boshqalaridan farqini toping.



**2.** Rasmlar orasidagi 3 ta farqni toping.



**3.** Quyidagi rasmlarga diqqat bilan qarang, ularning o‘xshash va farqli tomonlarini toping.



# Qarama-qarshi belgilar












- Har bir narsaning belgilarini sanab bering.
- Qaysi narsalarning belgilari bir-biriga o‘xshaydi?
- Qarama-qarshi belgilari bo‘lgan narsalarni toping.

**1.** Rasmlarga qarang va qarama-qarshi belgilari bor narsalarni toping.





**2.** Qaysi biri ortiqcha?






**3.** Sinfingizda qarama-qarshi belgilari bor narsalarni toping.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

# Tasdiq – inkor



- Qizaloq nima qilyapti?
- Stol ustida nimalar bor?
- Stolning ustida ortiqcha narsalar bormi? Nomlarini ayting.
- Stol ustidagi narsalarni namunada ko‘rsatilganidek ta’riflang.

**Namuna:**
Qalam – o‘quv quroli.
Olma – ... emas.

**1.** Rasmga qarab gaplarni davom ettiring.


| | |
|---|---|
|  |  |
| Mushukcha stolning ... . | Yo‘l ... . |

**2.** Geometrik shakllarga o‘z uychalarini topishda yordam bering.




**3.** Rasmlarga diqqat bilan qarang. Berilgan ta’rifga mos rasmni topib, nomini ayting.

Bu sabzavot ham, meva ham emas, qizil ham, yashil ham emas.



# Rost va yolg‘on



Rasmga qarang. Berilgan ta’riflar rost yoki yolg‘on ekanini ayting.

- Rasmda uchta bola tasvirlangan.
- Qiz bola o‘g‘il bola bilan gaplashib o‘tiribdi.
- Qizchaning noutbuki yopiq.
- O‘g‘il bolaning kitobi ochiq.
- Bolalarning qo‘lida qizil ruchka bor.
- Hamma kitoblar yashil rangda.

**1.** Rasmlarga diqqat bilan qarab, quyidagi gaplarning rost yoki yolg‘onligini aniqlang.

| | | |
|---|---|---|
|  |  |  |
| Kompyuter o‘chiq. | Planshet ishlab turibdi. | Mobil telefon yoqilgan. |

**2.** To‘g‘ri gaplarni toping.








| | |
|---|---|
| 1 | Rasmda faqat yovvoyi hayvonlar tasvirlangan. |
| 2 | Rasmda uy hayvonlari yo‘q. |
| 3 | Hayvonlarning ba’zilari yovvoyi. |
| 4 | Rasmda tasvirlangan barcha yovvoyi hayvonlar kulrang. |

**3.** Qaysi gap to‘g‘ri?



- Tipratikan yashil katakdan sariq katakka yetib borishi uchun 1 katak chapga, 2 katak yuqoriga yurishi kerak.
- Tipratikan yashil katakdan ko‘k katakka yetib borishi uchun 3 katak o‘ngga, 2 katak yuqoriga yurishi kerak.

# Eng keraklisi


















- Bola matematikadan dars tayyorlamoqchi. Unga matematika darsi uchun kerakli buyumlarni topishga yordam bering.

**1.** Qaysi kiyimlar maktabga, qaysilari mehmonga kiyilishini ayting.






**2.** Qizcha musiqa maktabiga bormoqchi. U quyidagi buyumlardan qaysi birini o‘zi bilan olib borishi kerak?






**3.** Kiyimlarning qaysilari qishda, qaysilari yozda kiyilishini ayting.








# Samarali natija

O‘z vaqtida bajarish

To‘g‘ri

**Yaxshi natijaga erishish**

Oxiriga yetkazish

Foydali








- Siz uyda qanday ishlarni bajarasiz?
- Qaysi ishlarni to‘g‘ri bajarasiz?
- Qaysi ishlaringiz o‘xshamaydi?
- Qaysi ishlarni o‘z vaqtida bajarasiz?
- Qanday foydali ishlar qilgansiz?
- Qaysi ishlarni oxiriga yetkazmagansiz? Nima uchun?

**1.** Kubning tomonlaridan robotlarning rasmi qirqib olingan. Ularni toping.









**2.** Rasmlar orasidagi farqlarni toping.





**3.** Qiz bolaga nima sovg‘a qilish mumkin? O‘g‘il bolaga-chi?











# Mundarija


**1-bob. Biz olamni qanday qabul qilamiz?**

**1-dars.** Bizning sezgi a'zolarimiz ... 6
**2-dars.** Biz nimalarni ko'ramiz? ... 8
**3-dars.** Rang va shakl ... 10
**4-dars.** Biz nimalarni eshitamiz? ... 12
**5-dars.** Bular qanday hid taratadi? ... 14
**6-dars.** Turli xil ta'mlar ... 16
**7-dars.** Bizning his-tuyg'ularimiz ... 18
**8-dars.** Buyumlarga ta'rif beramiz ... 20
**9-dars.** Bizning dunyoqarashimiz ... 22

**2-bob. Ketma-ketlik**

**10-dars.** Ketma-ketlik ... 26
**11-dars.** Oldin – keyin ... 28
**12-dars.** Edi – bo'ldi ... 30
**13-dars.** O'sish va kamayish tartibi ... 32
**14-dars.** Amallarning ketma-ketligi ... 34
**15-dars.** Tabiatdagi takrorlanish hodisalari ... 36
**16-dars.** Bizning sog'lom turmush tarzimiz ... 38

**3-bob. Tomonlar va yo'nalishlar**

**17-dars** Tepa – past ... 42
**18-dars.** Oldinda – orqada ... 44
**19-dars.** Chapda – o'ngda ... 46
**20-dars.** Uzoq – yaqin ... 48
**21-dars.** Yo'l va yo'nalish ... 50
**22-dars.** Uzun – qisqa ... 52
**23-dars.** Xavfsiz hudud ... 54
**24-dars.** Labirint ... 56
**25-dars.** Maktabdan uyga qaytish yo'li ... 58

**4-bob. Samaradorlik**

**26-dars.** Narsalarni qismlarga ajratish ... 62
**27-dars.** Turli qismlardan yaxlit narsani yig'ish ... 64
**28-dars.** Taqqoslash ... 66
**29-dars.** Qarama-qarshi belgilar ... 68
**30-dars.** Tasdiq – inkor ... 70
**31-dars.** Rost va yolg'on ... 72
**32-dars.** Eng keraklisi ... 74
**33-dars.** Samarali natija ... 76

# Kitobni asrang!

Kitob – insonning eng yaqin yordamchisi. Kompyuter va gadjetlar ishdan chiqishi mumkin, ammo kitob doim biz bilan birga bo'ladi. Kitob bizning do'stimiz va ustozimiz hisoblanadi. Kitoblarni yaratish uchun ko'plab insonlar mehnat qiladilar. Biz ajdodlarimizning dono o'gitlarini kitoblar orqali o'rganamiz. Ular hayotda to'g'ri yo'lni tanlashimizda bizga yordam beradi. Agar kitobni asrab-avaylasak, u ko'plab insonlarga uzoq yillar xizmat qiladi.

Kitob bizni bilim va quvonchlar bilan limmo-lim tasavvurlar olamiga yetaklaydi. Vaqti kelganda, u bizni Yer yuzidagi kichik hujayralardan tortib, okean hamda koinotda kechadigan turli voqea-hodisalar va ularning sirlaridan voqif qiladi.

Kitob bizni o'ylashga, fikr yuritishga va to'g'ri xulosa chiqarishga o'rgatadi.



**Zakirova F.M.**

**Informatika va axborot texnologiyalari.** Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik / F.M. Zakirova, M.R. Zakirova, M.R. Fayziyeva, N.S. Xaytullayeva. – Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023. – 80 b.

**UO'K** 004 (075.3) **ISBN** 978-9943-7209-1-
**KBK** 32.81ya72
I-61

Zakirova Feruza Mahmudovna

# Informatika va axborot texnologiyalari

# 1-sinf

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

"Novda Edutainment"
Toshkent – 2023

| | |
|---|---|
| Muharrirlar: | *M.Mirsolihov, Sh.Muslimova* |
| Badiiy muharrir | *A.Sobitov* |
| Musahhih | *X.Serobov* |
| Rassomlar: | *A.Pan, V.Frolov, G.Juraeva* |
| Kompyuterda sahifalovchi | *R.Mirakov* |

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 30.06.2023-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70x100 1/16. Kegli 16 n/shponli. "Arial" garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Mashinada yengil bo'rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m$^2$ qog'oz. Shartli b.t. 6,5. Hisob-nashriyot t. 1,17. Adadi 626 981 nusxa. Buyurtma raqami 23-217. "O'zbekiston" NMIUda chop etildi.